



AMIR XUDOYBERDI G'AZALLARIDA MUBOLAG'A SAN'ATI

Shahrisabz pedagogika institute Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Sirojiddinova O'g'iloy

Annotatsiya: O'zining sermahsul ijodi bilan o'zbek she'riyatida o'rniga ega shoirlarimizdan biri Amir Xudoyberdidir. Shoir she'rlarida hissiyot, turli xil o'y-xayollar tasviri, Vatanga muhabbat, she'riyatga sodiqlik masalalari yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ijodi bilan yaqindan tanishadigan bo'lsak, shoirning har bir she'riga o'z ruhini baxsh etganiga guvoh bo'lamiz.

Kalit soz'lar: she'riyat, tafakkur, g'oya, lirika, ta'lim, tarbiya.

Аннотация: Одним из наших поэтов, который своим плодотворным творчеством занимает место в узбекской поэзии, является Амир Худойберди. В стихах поэта ведущее место занимают эмоции, изображение различных мыслей, любовь к Родине, верность поэзии. Если мы поближе познакомимся с его творчеством, то увидим, что поэт вкладывал душу в каждое стихотворение.

Ключевые слова: поэзия, мысль, идея, лирика, образование, воспитание.

Abstract: One of our poets who has a place in Uzbek poetry with his prolific work is Amir Khudoyberdi. In the poet's poems, emotions, depiction of various thoughts, love for the Motherland, loyalty to poetry occupy a leading place. If we get to know his work closely, we will witness that the poet gave his soul to each poem.

Key words: poetry, thought, idea, lyrics, education, education.

Amir Xudoyberdi o'z she'rini Vatan deya biladi. Shu o'rinda, Vatanni sotmasligini ham ta'kidlaydi. Manzilda yanglishsa, darhol o'sha yerda tushib, ortga qaytishini aytadi. Hatto, u tushgan joy "o'lim bekati" bo'lsa ham. Shoir she'rlarini mutolaa qilmutolaa qilish chog'ida, u o'z g'oyalarini goh oshkor, goh yashirin tarzda satrlarga singdirishi e'tiborni tortadi. Badiiylikning ajoyib namunasi bo'lgan she'rlarida turli badiiy tasvir vositalaridan, she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalanganining guvohi bo'lamiz. Masalan, uning:

Zardobli nahr ichra umrim xazoni oqqay abad,

Bezamas erkan yuzing to jism-u jon gulzorini [1:215].



baytida oshiq yor vasliga yetmas ekan uning umri xazondek zardobli ariq ichida oqishi tasviri tashbeh san'atining ajoyib namunasi hisoblanadi. Nafaqat, tashbeh san'ati Amir Xudoyberdi o'z g'azallarida mubolag'a san'atidan ham unumli foydalangan.

Mubolag'a arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nolarini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Bu xil tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'zi oldida yorqinroq gavdalanadi [5:9].

Dilda daryo oqqanin g'avvosga aytdim, bilmadim,

Men-sadafni sindir-u injularimni asragil [2:85].

baytida oshiqning dardlari shu darajada ortganki, hatto, dardlar daryodek dilidan oqa boshlagan. Mubolag'a o'quvchining tasavvur olamiga asoslanadi, timsol holati yoki harakati belgisi ana shu tasavvur olami sig'dirganchalik bo'rttirilishi mumkin. O'quvchining tasavvur doirasiga sig'magan mubolag'a o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Mubolag'a tablig', ig'roq, g'uluvv deb atalgan 3 turga bo'linadi.

"Tablig' aqlan ishonish mumkin bo'lgan hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'adir" [5:10].

Sochlari sochbog'iga sig'may saboda sollanur,

Sadafda sochquncha saqlangan sirini saylasam [2:90].

Misrasida aynan shu holat kuzatilgan. Ya'ni sochlarning qalinligidan sochbog'ga sig'maslik holatiga aqlan ishonsak bo'ladi. Bu holat hayotda ham uchrashi mumkin. Bundan tashqari, bu misrada "s" harfining muntazam 10 marta takrorlanib kelishi tavze' san'atini hosil qilgan.

Sog'inching zo'ridan jonim chiqar bo'lsa, gumon qilki:

Ona yurt bo'yini yellar olib kelmish dimoqlarga. [2:88]

Bu misrada ham tablig' san'atidan foydalanilgan bo'lib, bir qaraganda, bu holat hayot haqiqatiga to'g'ri kelmaydigandek ko'rinishi mumkin. Ammo, hayotda yaqin insonlarini sog'inib, o'sha sog'inch zo'ridan biror – bir dardga yo'liqib vafot etgan insonlarni uchratishimiz mumkin va bu holat aqlga ham sig'adi.



Mubolag‘aning ikkinchi darajasi ig‘roq deb ataladi. “Ig‘roq belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash demakdir” [5:10].

Toleyimga chang solibdi qirq yosuman, qirqta dev,

Qo‘ynima kim kirsam, yoringman debon, mor ayladi. [2:94]

Bu misrada shoir qirq yosuman va qirq devning toleyiga chang solishi tasviri orqali mubolag‘a san‘atini vujudga keltirgan. Yosuman va devlarni tasavvur qilish mumkin, aqlga ham sig‘adi. Ammo bu holat hayotda yuz berishi mumkin emas. Shuning uchun, bu misrada mubolag‘aning ikkinchi darajasi, ya‘ni ig‘roqdan foydalanilgan deyishimiz mumkin. Keyingi misrada shoir yaqin deb bilgan kishilarining unga vafo qilmay ilonlik (xiyonat) qilishganini aytgan. Bunda shoir “Qo‘ynida ilon saqlamoq” iborasiga ishora qilib talmeh san‘atini yuzaga keltirgan. Mubolag‘aning uchinchi darajasi g‘uluvv deb ataladi. “Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmaydigan tarzda tasvirlash shunday san‘at sanaladi” [5:11].

Qaro sochin yoydi yor, cho‘kdi zulmat – ne balo qildi?

Qaro qoshi hajr shomin qaroliqdan qaro qildi [2:108].

Biz bilamizki, mubolag‘aning bu turida shoir biror belgi, holat yoki harakatni tasvirlar ekan ularga kitobxonni ishontirishni ko‘zlamaydi. Keltirilgan noyob tasvirning o‘zi o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Yuqorida keltirilgan misrada ham shoir yorning qaro sochlarini yoyganligi tufayli zulmat cho‘kishi, qaro qoshlari esa hajr shomin qaroliqdan qaro bo‘lishiga sababchi qilish orqali mubolag‘ali tasvir yaratadi. Bu tasvirni aqlga sig‘dirolmaymiz, hayotda ham uchramaydi. Lekin shoirning g‘uluvv san‘atidan foydalanib go‘zal lavha yaratganining guvohi bo‘lamiz. Misollar:

Ko‘p erur Iblisga some, aldagay Olloni ham,

Ko‘rsatur elning ko‘ziga mis debon tilloni ham [2:95].

Olulanib qonga to‘lmish ishq zaxmidan,

Labingizni oludan qutqaroli qiz [2:86].

Chekdi sarhad ikki kiftim o‘rtasida, yo falak,

Bir tomonim bog‘ esa, bir yon olov favvorasi [2:92].



Koʻrmadim gul kezdimu gulshanni ming yil ul kabi,

Gul na jannatda topilmasa, bil, dedi, bilgurdi gul [1:185].

Gʻam nima? Qaydan kelur u odamizod boshiga?

Gʻarq qilur olamni Nuh toʻfoniday koʻz yoshiga [1:185].

Muhabbat ofati toʻfon, ming bir Nuh qolmagay omon,

Kemasi choʻksa, sel sursa, parilar ham toʻkar koʻz yosh [1:210-211].

Soʻnggi baytga eʼtibor bering. Baytning birinchi misrasida oshiq shunchalik koʻp azob chekadiki, gʻamdan yuzi sargʻayadi. Bu holat hayotda ham yuz berishi mumkin. Misra davomida esa qonining sariq rangga kirishi tasviri berilgan. Bu holat hayotda roʻy berishi mumkin emas. Demak, shoir bir misrada ham tabligʻ, ham gʻuluvv sanʼatidan foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Xudoyberdi ijodida nafaqat, mubolagʻa sanʼati, shu bilan birgalikda boshqa koʻplab sheʼriy sanʼatlar oʻz maromida mahorat bilan ishlatilgan. Shoir kitobxonga tanish boʻlgan voqea – hodisalarni ustalik bilan olib, oʻz sheʼrlariga koʻchirgan. Mubolagʻa janri uning ijodida qayta jonlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Xudoyberdi. Эврилиш. Сайланма. - Т. "Янги аср авлоди", 2002
2. Amir Xudoyberdi. Девоналармиз. Шеърлар. - Т. "Музыка", 2014
3. Amir Xudoyberdi. Таахаммул. Сайланма. - Т. "Музыка", 2015
4. Amir Xudoyberdi. Хазрати узбек. Шеърлар. - Т. "Музыка", 2020
5. Азим Хожиахмедов. Шеъррий санъатлар ва мумтоз кофия. - Т." Шарк", 1998